XALQ DEPUTATLARI SHOFIRKON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 16-avgust VI-103-93-2-41-K/24 Shofirkon tumani

Xalq deputatlari Shofirkon tumani Kegashining “Tumanda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi 79-sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida” gi qaroriga o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish haqida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-son qarori bilan suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, suvdan foydalanish madaniyatini yuksaltirish orqali aholi ongida shakllangan “suv-tekin” tushunchasidan voz kechish hamda suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini kengaytirilgan tartibda joriy etishni “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi 79-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Shofirkon tumani Kengashi

Q A R O R Q I L D I:

1. Xalq deputatlari Shofirkon tumani Kengashi 2024-yil 2-iyuldagi VI-100-76-2-41-K/24-sonli “Tumanda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi 79-sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida”gi qarorning ilovasiga ilovaga muvofiq o’zgartirish kiritish taklifi ma’qullansin.

2. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining o‘rinbosari N.Rahmonov zimmasiga yuklansin.

3. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



FAYZILLOYEV
ALISHER
ABDILLOYEVICH

Xalq deputatlari Shofirkon tumani
Kengashining
2024-yil 16-avgustdagi
VI-103-93-2-41-K/24 -son qaroriga
1-ilova

"Suv yetkazib berish" davlat muassasalari faoliyatini moliyaviy ta'minlash maqsadida suv solig'ining prognoz qilingan summasini 40 foizga oshirilishi hisobiga tuman mahalliy byudjetining 2024 yil uchun belgilangan daromadlari va xarajatlari miqdori

	Daromad turlari	Yil boshida belgilangan prognoz (mlrd)	VM-79-son qarorga asosan oshirilgan prognoz miqdori (40 foiz) (mlrd)	Shofirkon tuman “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi faoliyatini moliyalashtirish xarajatlari (mlrd)
1	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	5 211	2 084	2 084